

HARBIY STRATEGIYANING PAYDO BO‘LISHI VA UNING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Naurizbayev Janabergen Utepbergenovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti,
Janubiy operativ qo‘mondonlik fakulteti Umumqo‘shin
tayyorgarlik kafedrasida katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya:

Ushbu maqolada harbiy strategiyaning paydo bo‘lishi va uning rivojlanishiga ta’sir ko‘rastuvchi omillar zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil etilgan va ilmiy asoslangan. Shuningdek maqolada, harbiy strategiyaning rivojlanishiga qurollarning yangi turlarini paydo bo‘lishi hamda takomillashishi bo‘yicha ma’lumotlar asoslangan.

Kalit so‘zlar: Harbiy strategiya, omillar, qurol-aslaha, texnika, harbiy hiyla, qo‘shin, amaliy tajriba, urushlar avlodi, jang.

Introduction

Аннотация:

В данной статье на основе современных подходов проанализированы и научно обоснованы факторы влияющие на появление военной стратегии ее развитие. Также в статье обоснованы данные о появлении и совершенствовании новых видов вооружений, влияющих на развитие военной стратегии.

Ключевые слова: Военная стратегия, факторы, вооружение, техника, военная хитрость, войска, практический опыт, поколения войн, бой.

Annotation:

Based on modern approaches, this article analyzes and scientifically substantiates the factors influencing the emergence of a military strategy and its development. The article also substantiates data on the emergence and improvement of new types of weapons that affect the development of military strategy.

Keywords: Military strategy, factors, weapons, equipment, military cunning, troops, practical experience, generations of wars, combat.

Insoniyat tarixining dastlabki bosqichidayoq o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun harbiy soha yo‘lga qo‘yilib, hozirgi kungacha bu sohada misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdi. Davlat paydo bo‘lishi bilan harbiy tashkilotning ilk ko‘rinishlari bo‘lgan ko‘ngillilardan tuzilgan harbiy qismlar paydo bo‘lib, keyinchalik ular dahshatli kuchga–haqiqiy armiyaga aylandi. Bu armiya mamlakat xavfsizligi, chegaralarni qo‘riqlash bilan birga o‘zga mamlakatlarni istilo qiladigan hujumkor kuchga aylandi.

Qurol-yarog'lar takomillashtirilib, ularning yangi turlari paydo bo'ldi. Urush olib borishning ilk qonun-qoidalarini yuzaga keldi. Armiyaning tashkiliy tuzilmasi rivojlandi. Davlat hokimiyati armiyani tashkillashtirish va ta'minotini o'z zimmasiga oldi. Paydo bo'lgan yangi ijtimoiy qatlam harbiylarning huquq va majburiyatlarini belgiladi va bu qatlamni o'z himoyasiga oldi. Shu tariqa ilk harbiy tartib-qoidalar paydo bo'ldi. Jangchining harbiy boshliqqa so'zsiz bo'ysunish qoidasi yuzaga keldi. Lavozim va unvon bo'yicha kattalarga darajama-daraja bo'ysunishga asoslandi, boshqacha aytganda, harbiy boshliqning so'zi – bo'ysunuvchi uchun so'zsiz bajarilishi kerak bo'lgan qonunga aylandi.

Dunyo tarixidagi ilk davlatlar mil. avv. III ming yillik oxiri IV ming yillik boshlarida qadimgi Sharqning turli hududlarida paydo bo'ldi. Bu davlatlarda siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlash maqsadida harbiy soha ham rivojlana boshladi. Bu davlatlar uchun eng muhim vazifalardan biri mamlakatning tashqi chegaralarini dushmandan himoya qilish, mamlakat ichida barqarorlikni ta'minlash edi.

Harbiy strategiyaning rivojlanishiga qurollarning yangi turlarining paydo bo'lishi ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Qadimgi davrlarda qurollar oddiy, sodda va qo'pol qilib ishlangan, ammo neolit yoki yangi tosh asriga kelib, qurol-aslahalar biroz sayqallangan bo'lib, bu odamlarning aql-zakovati oshganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, o'sha vaqtlarda urush va tinchlik o'rtasidagi intervallar shunchalik qisqa ediki, ular o'rtasida katta farq yo'q edi. Demak, o'sha paytlarda hozirgi zamonga qaraganda ko'proq urushlar bo'lganligidan darak beradi.

Vaqt o'tishi bilan zamonning rivojlanishi va ehtiyojlarning oshganligi sababli qurol turli maqsadlarda ishlatila boshlandi. Natijada esa dastlabki, hiyla ishlatish va undan foydalanish to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlar shakllandi. Harbiy strategiyaning ichki tarkibiy komponentlarini tahlil qilinsa, uni asosini "harbiy hiyla" tashkil etishini inobatga olish zarur. Strategiya so'zining kelib chiqishi va lug'aviy ma'nosi "harbiy hiyla" ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, harbiy strategiyaning rivojlanishiga aynan harbiy hiylalarni mohirona qo'llanilishi o'z ta'sirini o'tkazgan. Shu tariqa urushlarda harbiy strategiya bilan bir qatorda harbiy hiyla ishlatish ham rivojlanib bordi. Zamonaviy urushlarda harbiy hiylalar ham harbiy strategiyaning rivojlanishi va o'zgarishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bunga bugungi kunda sodir bo'layotgan zamonaviy jangovar harakatlarda qo'llanilayotgan harbiy hiylalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Hiyla (arabcha ayyorlik, makkorlik, makr, nayrang) aldash uchun ishlatiladigan yo'l, aldovchi, chalg'ituvchi ish, tadbir, xatti-harakat, nayrang, firib [1, B. 527] ma'nolarini ifodalashi ko'rsatib o'tilgan. Harbiy hiyla – harbiy san'at va xalqaro gumanitar huquq tushunchasi bo'lib, bunda dushmanni xato qilishga undash, o'ylamasdan shoshqaloqlik bilan harakat qilish yoki adashtirish uchun qilingan usullar tushuniladi [2, B. 279]. Demak, harbiy hiyla deganda, dushman yoki raqibni to'qnashuv va jang oldidan, yoki jang paytida aldashga va chalg'itishga intilish orqali firib berish, ayyorlik ishlatish, makr va nayrangning turli usul va yo'llarni qo'llash bilan g'alabaga erishishni ta'minlashga intilish, yoxud dushmanga katta talafot yetkazishga intilish, kam sonli va kamxarajat yo'l bilan dushmanni yo'q qilishga, tormor etishga, xavf va xatarni bartaraf etishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar majmui sifatida baholash mumkin.

Shunday bo'lsada, qo'llanilgan harbiy hiylaga dushman ishonchnomasi, bu hiylaga qarshi hech qanday chora yoki tadbir qo'llamasligi? Bizning fikrimizcha harbiy hiylaga qo'yilgan eng asosiy ikki talab: birinchisi – dushmanni ishontrish, ikkinchisi – bu hiylaga qarshi dushman albatta biror chora yoki harakat qo'llashi. Agar bu ikki talab bajarilmas ekan buni biz harbiy hiyla sifatida qabul qila olmaymiz. Urushlar tarixida, ehtimol, hiyla bilan dushman ustidan g'alaba qozonishga intilmaydigan qo'mondon bo'lmagan va qarama-qarshi tomonlar o'zlarining asl niyatlari to'g'risida bir-birlarini chalg'itadigan turli xil hiylalarga murojaat qilmagan bo'lar edi. Qo'shinlarning to'satdan, tezkor va qat'iy harakatlarisiz g'alabaga erishib bo'lmaydi. Bunda, harbiy hiylani yuridik ta'rif hisoblangan “ahdini buzish [3, B. 85]” atamasiga adashtirmaslik zarur.

Harbiy hiylaga oid manbalar tahlili asosida unga quyidagicha tarif berildi: Harbiy hiyla – bu dushmanni aniq ishontrish orqali uni biror-bir chora yoki xatti-harakatga majbur qilishga qaratilgan yolg'on xabar yoki harakatlar majmuasi. Qadimgi davrlarda harbiy hiylalarning namoyon bo'lishi asosan oddiy ko'rinishga ega bo'lib, bu katta moddiy xarajatlarni hamda uzoq vaqtni talab qilmagan. Ba'zan yolg'on harakatni amalga oshirish kifoya edi, masalan, pistirma uyushtirish va shu bilan jang muvaffaqiyatini ta'minlash.

Bu asosan bitta jang natijalariga ta'sir qildi va katta moddiy yo'qotishlar bilan birga kelmadi. Yangi urush vositalarining paydo bo'lishi bilan g'alaba qozonishda harbiy ayyorlikning ahamiyati yanada oshdi. Tarixiy misollar aniq ko'rsatadiki, harbiy hiyla san'ati tufayli hatto son jihatdan ustun armiyani ham mag'lubiyatga uchratib, jangda g'alaba qozonish mumkin edi.

Arxeologlar tomonidan Markaziy Osiyoda ham ibtidoiy odamlarning manzilgohlari topib o'rganilgan bo'lib, Surxondaryo viloyatidagi “Teshiktosh” g'oridan topilgan 9–12 yoshdagi neandertal bolaning suyak qoldiqlari bunga misoldir. Surxon vohasidagi Teshiktosh g'ori topilmalari nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda mashhurdir. U yerdan beshta madaniy qatlamda 2859 ta toshdan yasalgan qurol bo'lgan [4]. Harbiy strategiyaning rivojlanishiga qurol-aslaha, maxsus va harbiy texnikalarning paydo bo'lishi, takomillashuvi, ularning yangi turlarining yaratilishi o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Chunki, har bir yangi turdagi qurol yoki texnikaning ixtiro qilinishi avvalambor, urush olib borishning yangicha ko'rinishlarini keltirib chiqaradi, o'z navbatida raqib tomon unga qarshi kurashish choralarini izlab topishga harakat qiladi. Bu esa yangi turdagi qo'shinlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Harbiy strategiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri – bu qo'shinlarning amaliy tajribasining mavjudligidir. Hozirda dunyoning harbiy qudrat jihatdan yetakchi davlatlari aynan amaliy tajribalar orqali o'z strategiyalarini sinovdan o'tkazmoqda. Bunga Tog'li Qorabog', Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropada olib borilgan va davom etayotgan jangovar harakatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Xorijiy mutaxassislarning fikricha, qurol-aslaha, maxsus va harbiy texnikalarning takomillashishi, yangi turlarining paydo bo'lishi, uni yangi bosqichga, ya'ni oltinchi avlod urushlariga olib keladi. Oltinchi avlod urushlari konsepsiyasining paydo bo'lishi qurolli kurash olib borish xarakteri va sifatini o'zgarishiga olib keladi, lekin, zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmaydi (yaqin kelajakda).

Quyidagi jadvalda qurol-yarog‘larning rivojlanishi, ularning yangi turlarini paydo bo‘lishi qanday qilib harbiy strategiya va urushlar avlodining almashinuviga ta‘sirini ko‘rish mumkin.

1–jadval YANGI TURDAGI QUROLLARNING PAYDO BO‘LISHI VA ULARNING URUSHLAR AVLODINING ALMASHINUVIGA TA‘SIRI [5, B. 13]

Urush avlodlari	Urush olib borish formulasi	Urushlarning asosiy maqsadi	Qurol–yarog‘ va harbiy texnika
BIRINCHI AVLOD	Taktik miqyosidagi bo‘linmalar jangi	Qarama–qarshi dushmani tor–mor keltirish	Sovuq qurol
IKKINCHI AVLOD	Taktik miqyosidagi bo‘linma, qism va qo‘shilmalar jangi	Dushmani tor–mor keltirish, uning boyliklari va hududini egallash	Porox, silliq stvolli qurol
UCHINCHI AVLOD	Operativ–taktik miqyosidagi jangovar harakatlar	Dushmanning qurolli kuchlari tor–mor qilish, uning iqtisodi va siyosiy tuzumini buzish	Otishning tezligi, aniqligi va uzoqligi oshirilgan ko‘p o‘qlanadigan qurol
TO‘RTINCHI AVLOD	Strategik miqyosidagi operatsiyalar (janglar)	Dushmanning qurolli kuchlarini tor–mor qilish, uning iqtisodiy imkoniyat va siyosiy tizimlarini buzish	Avtomatik va reaktiv qurol, tank, aviatsiya, flot, transport vositalari
BESHINCHI AVLOD	Strategik (global) miqyosdagi operatsiyalar (janglar)	Qarshi kurashayotgan davlatning (davlatlar ittifoqi) qurolli kuchlari, siyosiy tuzumi tor–mor qilish	Raketa–yadroviy va yuqori texnologik qurol

Harbiy tadqiqotchilarning qarashlaricha kelajakdagi urushlarda jangovar harakatlarni olib borish bo‘yicha 6-avlod urushlari Konsepsiyasi quyidagicha bo‘lishi mumkin.

Ushbu jadvalda keltirilishicha strategik miqyosdagi operatsiyalarda yadro quroli qo‘llanilmaydi, u faqat dushmani tiyib turish vositasi sifatida ko‘riladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

birinchi – zamonaviy harbiy operatsiyalarning mohiyati shundan iboratki, tomonlar eng avvalo o‘zlarining milliy manfaatlarini ilgari surish usullarini ifodalaydi;

ikkinchi – zamonaviy harbiy operatsiyalarning asosiy mazmuni qoidaga ko‘ra qo‘shin (kuch)larning operativ va taktik darajadagi harakatlari hisoblanadi;

uchinchi – zamonaviy harbiy operatsiyalarining o‘ziga xos jihati unda ishtirok etuvchi kuchlarning miqyosi va boshqaruvdagi farqi hisoblanadi.

“Xavfsizlik muammolari va xalqaro munosabatlarda harbiy kuch siyosati” bo‘yicha quyidagilarni aytib o‘tish mumkin:

agar yadroviy tiyib turish g‘oyasi global darajasida emas, balki, milliy harbiy doktrina darajasida bo‘lsa maqsadga muvofiq deb qabul qilinadi;

yadro quroliga ega davlatlar eng samarali va takomillashgan qurol turiga ega bo‘lgan holdagina o‘zlarining yadro arsenalidan voz kechishadi.

2-jadval OLTINCHI AVLOD URUSHLARINING KONSEPSIYASI [5, B. 13] (variant)

Urush avlodlari	Urush olib borish formulasi	Urushning asosiy maqsadi	Qurol–yarog‘ va harbiy texnika. XXI asr urushlari
OLTINCHI AVLOD	STRATEGIK MIQYOSDA “Tarmoqli armiya” va “Setetsentrik urushlar” ni olib borish «Network–centric warfare»	QARAMA–QARSHI TOMONLAR dushmanning iqtisodiy potentsialini yo‘q qilish, shuningdek siyosiy tuzumini o‘zgartirish	Strategik miqyosdagi kontaktsiz yadrolarsiz urushlar.
			Yuqori aniqlikdagi qurollarni keng miqyosda qo‘llash, nishonni tanlash va yuqori aniqlikda yo‘q qilish–jangovar tavsifining asosi.
			Tomonlarning barcha tuzilmalari harakatlanayotgan makonda yagona axborot maydonini yaratish (alohida texnika, alohida harbiy xizmatchigacha).
			AQSh–“GPS”, RF–“Glonass”, Yevropa–“Galileo”. Havoda ustunlik.
			Karabl turkumlari konsentratsiya joyi. Dengizda ustunlik (paluba aviatsiyasi, suv osti va suv usti kemalari).
			Ko‘p miqdorda radioelektron kurashish vositalariga ega bo‘lish. Dushmanning yagona axborot maydonini izdan chiqarish.
			Axborot–ruhiy urushlar rolining oshishi.

Bugungi kunda 6-avlod urushlari konsepsiyasi negizida o‘z qurolli kuchlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishga tayyor, harbiy jihatdan rivojlangan ko‘plab davlatlar mavjud. Bir qancha davlatlar o‘z qurolli kuchlarida yangi avlod “Tarmoqli armiya” elementlarini tatbiq etmoqda.

Bunga misol qilib AQSh, RF, XXR, Buyuk Britaniya, Fransiya, Isroil, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Braziliya, Hindiston va boshqa bir qator davlatlarni ko‘rsatish mumkin.

Bugungi kunda 6-avlod urushlari konsepsiyasi xalqaro xavfsizlik tizimida inqilobiy o‘zgarishlarga olib kelmagan bo‘lsa ham, urush olib borish san’atining sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi.

Dunyo harbiy san’ati tarixiga nazar tashlasak, turli tarixiy davrlarda mamlakatlar harbiy kuch-qudratiga ta’sir qiluvchi omillar ichida: mamlakatning geografik holati; hududining tabiati (xomashyo zaxiralari), iqlim va ishlab chiqaruvchi kuchlari; hududi va maydonining hajmi; aholisi soni va tarkibi; xalqining mentaliteti, xarakteri; hukumat tuzilishi, boshqaruv shakli kabilar asosiy o‘rin tutib kelganini qayd etish mumkin. O‘zbekiston xalqlari qadim zamonlardan oq xalqaro siyosiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda faol ishtirok etib kelgani ma’lum.

Bu aloqalarning ta’sirida hamda ichki va tashqi geosiyosiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli O‘zbekiston xalqlari harbiy san’ati ham o‘ziga xos ravishda rivojlanib bordi.

Bunga mintaqaning xalqaro munosabatlarida muhim harbiy strategik ahamiyat kasb etgan qulay geografik joylashuvi ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Harbiy strategiya jamiyatning o'ziga xos tarixiy sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning qoidalari harbiy-siyosiy vaziyatni baholash natijalariga, shuningdek, davlat harbiy tashkilotini rivojlantirishning muayyan maqsadlari, vazifalari, tamoyillari va yo'nalishlariga asoslanadi. Shu bilan birga, bunday rivojlanish uchun ham obyektiv ehtiyojlar, ham real imkoniyatlar hisobga olinadi.

Bundan tashqari, harbiy strategiyaning mazmuniga ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijalari, qurolli kurashning yangi vositalari va tizimlarini ishlab chiqarish, ularni qo'llash usullari va shakllari ham, shuningdek, qurolli kuchlarning yagona axborot makonini yaratish imkonini beruvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'sir qiladi.

Shu va boshqa bir qator omillarning ta'siri natijasida harbiy strategiya mazmunining obyektiv rivojlanishi sodir bo'ladi. Natijada uning mazmunining yangi bo'limlari va elementlari paydo bo'ladi, ayrim eskirgan qoidalarga aniqlik kiritiladi yoki o'z mazmunini butunlay yo'qotadi. Shunday qilib, so'nggi yillarda ro'y berayotgan terrorchilik tahdidlarining kuchayishi terrorchilik harakatlariga qarshi kurashish uchun qurolli kuchlarni jalb qilish zarurligini anglashga olib keldi.

Hozirgi vaqtda ayrim mamlakatlarda qurolli guruhlarining ham mamlakat ichida, ham uning tashqarisida aksiterror operatsiyalarda ishtirok etishini tartibga soluvchi huquqiy mexanizm joriy qilingan yoki ishlab chiqilmoqda.

Tabiiyki, harbiy strategiya mazmuniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan tarixiy taraqqiyotning obyektiv jarayonida nazariy va amaliy xarakterdagi yangi muammolar paydo bo'ladi. Bunday muammolar paydo bo'lishi bilan ularni oqilona hal qilish yo'llarini izlash amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi harbiy strategiya mazmunini boyitib, harbiy sohada davlat va oliy harbiy rahbariyat tomonidan hal etiladigan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Harbiy strategiyaning haqiqiy mazmuni ko'p jihatdan uning vazifalari belgilaydi. Bu uning mazmunining barcha sanab o'tilgan elementlarini va ular tomonidan shakllantirilgan yagona butunlikni – bevosita harbiy strategiyaning o'zini, uning barcha nazariy va amaliy harbiy faoliyatdagi o'rnini nazariy tushunish va amaliyotda qo'llash orqali sodir bo'ladi.

Harbiy strategiyani amalga oshirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, uning vazifalari bir qator obyektiv va subyektiv omillarning ta'sirini hisobga olgan holda belgilanadi, ularning asosiylari:

- materialistik dialektikaning umumiy qonuniyatlari, urush va qurolli kurash qonunlari;
- davlat mudofaasini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosati;
- davlatning mudofaa (harbiy) doktrinasi talablari;
- harbiy xavf va tahdidlarning mavjudligi;
- boshqa davlatlarning harbiy kuch ishlatish haqidagi qarashlari;
- qurolli kurash vositalarining sifat xususiyatlari va qurolli kuchlarni ular bilan jihozlash;
- harbiy harakatlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish shartlari;
- urushlar va qurolli mojarolar tajribasi, operativ va jangovar tayyorgarlik;
- davlatning mudofaaga tayyorlanish va qurolli kuchlarning ehtiyojlarini qondirish qobiliyati.

Harbiy san'at o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan strategiya, operativ san'at va taktikadan iborat. Bu san'at ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy tuzum xususiyati bilan belgilanib, mamlakatning rivojlanish tarixi xususiyatlari, milliy xususiyatlari, geografik sharoiti va boshqa omillarga bog'liq.

Harbiy strategiyaning aniqlovchi pozitsiyasi hech qanday holatda operativ san'at va taktikaning ahamiyatini kamaytirmaydi. Harbiy faoliyat nazariyasi va amaliyotidagi boy tajriba shuni ko'rsatdiki, harbiy strategiya o'z vazifalarini operativ san'atga tayanib, uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda muvaffaqiyatli hal qiladi, bu esa, o'z navbatida, taktika bilan belgilanadi.

Masalan, qurolli kurash vositalarini ishlab chiqish va qurolli kuchlarni ular bilan ta'minlash taktikaga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Undagi o'zgarishlarning to'planishi operativ san'atning, keyin esa harbiy strategiyaning ma'lum qoidalarni takomillashtirish yoki qayta ko'rib chiqishga olib keladi.

Tahlil qilish asosida harbiy strategiyani ishlab chiqishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini aniqlash mumkin: harbiy strategiya asoslari; ehtimoliy urushlar, ularning mazmuni va xarakteri; urushlarning oldini olish va tinchlikni mustahkamlash uchun harbiy jarayonlar; davlatni mudofaaga tayyorlash; strategik miqyosdagi harbiy harakatlarni tayyorlash va o'tkazish; turli miqyosdagi urushlarni olib borish; davlatlarning, ularning koalitsiyalarining harbiy kuch ishlatish haqidagi qarashlari; harbiy strategiya tarixi va boshqalar.

Yuqoridagi tendensiyalar davlat harbiy faoliyatining barcha sohalarida o'z ta'sirini ko'rsatadi va butun siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa tizimlarning yo'nalishi va mazmunini obyektiv aniqlash imkonini beradigan o'ziga xos yo'nalish va davlatning qurolli hujumga tayyorligi va himoyalanihini ta'minlovchi mudofaa choralari bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy strategiyani ishlab chiqish yo'nalishlarini belgilashda uning harbiy-siyosiy vaziyat, davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va harbiy salohiyati o'zgarishiga mos ravishda rivojlanib borishini ham hisobga olish zarur.

Harbiy strategiya siyosat bilan bog'liq bo'lib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Urush davrida siyosat va harbiy strategiyaning o'zaro bog'liqligi harbiy-siyosiy rahbarlikning yagona organlarini yaratishda namoyon bo'ladi. Harbiy strategiyaning mohiyati va mazmuniga davlatning iqtisodiyoti va ijtimoiy – siyosiy tuzilishi ta'sir ko'rsatadi.

Harbiy strategiyani optimal ishlab chiqish muammolari harbiy faoliyatning deyarli butun sohasini qamrab oladi. Harbiy strategiyani yanada rivojlantirish davlatning mudofaa va harbiy xavfsizligi sohasida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini oshirishga qaratilishi kerak. Bu davlatlarning tinchlik davrida qurolli kurash vositalaridan foydalangan holda ham, foydalanmasdan ham amalga oshirgan harbiy faoliyatini yangicha o'rganish imkonini beradi.

Zamonaviy sharoitlarni hisobga olgan holda, harbiy strategiyaning yangi mazmuni nafaqat davlatning qurolli mudofaasi va uning harbiy xavfsizligini ta'minlash masalalarini, balki tinchlik davridagi harbiy faoliyatning bir qator boshqa jihatlarini, shu jumladan, harbiy harakatlarni, tinchlikparvarlik va gumanitar faoliyat, xalqaro harbiy hamkorlik va qurolsizlanishni o'z ichiga olishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, harbiy strategiyaning rivojlanishiga omillar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'tmishdagi urushlarda qo'llanilgan harbiy strategiyalar har doim ham bir xil bo'lmagan, uni ma'lum bir cheklangan qolipga solib bo'lmasligi va chegarasiz ekanligi ta'kidlash mumkin hamda unga quyidagi omillar ta'sir qilishini aytib o'tish o'rinlidir:

Birinchi, harbiy strategiya davlatning tashqi va ichki siyosati, harbiy siyosati, harbiy qurilish va qurolli kuchlarni qurish yo'nalishlari, iqtisodiyoti, geografik joylashuvi, hududining hajmi, tabiiy resurslari, aholisi va harbiy xizmatga yaroqlilarning soni, safarbarlik imkoniyatlari, qo'shni davlatlar bilan hududiy muammolarning mavjudligi, aholining etnik va diniy tarkibi, tashqi va ichki xavflarning darajasi.

Ikkinchi, davlat xavfsizligi va mudofaasini ta'minlashdagi harbiy qudrati, qurolli kuchlarining miqdori va sifati, harbiy amaliyotning mavjudligi, mavjud qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnikalarning (yadro quroli, sun'iy yo'ldosh tizimi, harbiy-dengiz kuchlari (floti) agar mavjud bo'lsa) imkoniyatlari, qurolli kuchlarga kadrlar tayyorlash tizimi, harbiy (mudofaa) sanoat majmuasi, barcha ta'minot turlarining imkoniyatlari, strategik zaxiralari.

Uchinchi, yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda harbiy strategiyani shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillar qatoriga: tashqi xavf va tahdidlarning mavjudligi, ularning darajasi, davlatlararo harbiy hamkorlik hamda davlatning qaysi zamon va geografik makonda joylashganligini ham kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi. Q - Tartibli / Mas'ul muharrir A.Madvaliev. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2020. – B. 527.
2. Гришин С. В., Цапенко Н. Н. Раздел «Военные хитрости» главы «Маскировка» // Соединения и части в бою. – Москва: Военное издательство, 1985. – С. 105. – 279 с. – (Иностранные армии).
3. Вероломства. Военные хитрости // Большой юридический словарь / Додонов В. Н. – 2001. – 790 с.
4. Teshiktosh g'ori – Surxon zamini javohiri // <https://uzbektourism.uz/news/viewid=1097>. Murojaat vaqti 2025-yil 24-noyabr.
5. Yusupov, R. Harbiy san'atning rivojlanishi / Darslik. – T.: 2022. – 475 b.
6. Samadov, A. X. Safarov, Sh. Z. (2026). ZAMONAVIY JANGOVAR HARAKATLAR VA TO'QNASHUVLARDA HARBIY MOJAROLARNING ISTIQBOLLAR TAHLILI. *Экономика и социум*, (2-2 (141)), 319-324.